

## PARALLEL KORPUSLARDA “HISSIYOT” LEKSIK-SEMANTIK MAYDONIDAGI KOGNITIV METAFORALARNI TEGGLASH MEZONLARI

**Abduramanova Nezire Enverovna**

O‘zDJTU Ingliz tili 1 fakulteti Ingliz tilining integrallashgan kursi № 1

[abdunezire@gmail.com](mailto:abdunezire@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada o‘zbek-ingliz parallel korpuslarida "hissiyot" leksik-semantik maydoniga mansub kognitiv metaforalarni aniqlash va ularni semantik teglash (annotation) muammolari tadqiq etiladi. Inson emotsiyalari ko‘pincha mavhum bo‘lgani bois, tilda ko‘chma ma‘nolar va metaforik ko‘chirishlar orqali moddiylashadi (masalan, g‘azab – olov, qo‘rquv – muz). Maqolaning maqsadi tillararo asimmetrik xarakterga ega bo‘lgan ushbu metaforik birliklarni parallel korpus tizimida yagona kognitiv-semantik qolipga keltirish tamoyillarini ishlab chiqishdir. Tadqiqotda J.Lakoff va M.Jonsonning kognitiv metafora nazariyasi hamda parallel korpus tahlili metodlaridan foydalanilgan.*

**Kalit so‘zlar:** kognitiv metafora, parallel korpus, semantik teglash, hissiyot maydoni, maqsadli domen, manba domen, tillararo asimmetriya.

### ABSTRACT

*This article investigates the challenges of identifying and semantically tagging (annotating) cognitive metaphors within the "emotion" lexical-semantic field in Uzbek-English parallel corpora. Given that human emotions are inherently abstract, they are frequently materialized in language through figurative shifts and conceptual mappings (e.g., anger as fire, fear as ice). The primary objective of this study is to develop structural principles for unifying these cross-linguistically asymmetric metaphorical units into a systematic cognitive-semantic template within parallel corpus frameworks. Drawing upon J. Lakoff and M. Johnson’s Conceptual Metaphor Theory alongside corpus analysis methodologies, the paper proposes a novel, two-tier tagging model ([EMOT\_TYPE + SRC\_DOM]) designed for metaphorical emotional lexis. The findings enhance the accuracy of semantic data retrieval and sentiment analysis in natural language processing.*

**Keywords:** conceptual metaphor, parallel corpus, semantic tagging, emotion field, target domain, source domain, cross-linguistic asymmetry.

### KIRISH (INTRODUCTION)

Matn tilshunosligi va korpus lingvistikasining o‘zaro integratsiyasi natijasida matn qatlamlaridagi yashirin kognitiv tuzilmalarni raqamlashtirish imkoniyati

tug'ildi. Biroq til korpuslarida matnni semantik teglash (semantic tagging) jarayonida eng ko'p qiyinchilik tug'diradigan qatlam – bu ko'chma ma'noli, xususan, metaforik ifodalar hisoblanadi. Inson o'z hissiyotlarini ifodalashda bevosita nomlashdan ko'ra, kognitiv metaforalarga ko'proq murojaat qiladi.

O'zbek tilidagi "*ichidan olov chiqdi*" (g'azablendi) yoki "*yuragi muzlab qoldi*" (qo'rqdi) kabi birikmalar shunchaki stilistik vosita emas, balki inson tafakkuridagi emotsional freymlarning lisoniy aksidir. Ingliz tilida ham xuddi shunday jarayon boshqa manba domenlari orqali namoyon bo'lishi mumkin ("*foaming at the mouth*" – g'azablanmoq). Parallel korpuslarda bunday birliklarni shunchaki umumiy emotsiya tegi bilan belgilash matnning kognitiv va uslubiy yukini yo'qotadi. Shu bois, parallel korpus uchun hissiyot metaforalarini teglashning maxsus kognitiv mezonlarini ishlab chiqish zamonaviy matn tahlili va kompyuter tarjimashunosligining dolzarb vazifalaridan biridir.

### **METODLAR (METHODS)**

Tadqiqotning nazariy-metodologik asosi sifatida J.Lakoff va M.Jonson tomonidan asos solingan Kognitiv metafora nazariyasi (Conceptual Metaphor Theory) olindi. Ushbu nazariyaga ko'ra, metafora ikki domen: Maqsadli domen (Target Domain – biz tushunmoqchi bo'lgan mavhum tushuncha, ya'ni *Hissiyot*) va Manba domen (Source Domain – bizga tanish bo'lgan moddiy olam, masalan, *Olov, Suv, Tabiat hodisalari*) o'rtasidagi kognitiv xaritalashdir.

Tadqiqot jarayonida o'zbek va ingliz tillaridagi badiiy matnlar bazasidan 400 dan ortiq emotsional metaforik kontekstlar ajratib olindi va quyidagi algoritm asosida parallel teglash bosqichlaridan o'tkazildi:

1.Lisoniy identifikatsiya:1-bosqich.

Matn tarkibidagi hissiyot ifodalovchi ko'chma ma'noli birikma (metafora yoki frazeologizm) aniqlanadi.

2.Domenlarni ajratish:2-bosqich.

Kognitiv tahlil yordamida metaforaning Maqsadli domeni (qaysi hissiyot ekanligi) va Manba domeni (nimaga o'xshatilganligi) komponentlarga ajratiladi.

3.Tillararo muvofiqlashtirish:3-bosqich.

O'zbekcha matndagi metaforik kontseptning inglizcha parallel matndagi funksional-uslubiy muqobili aniqlanadi.

4.Ikki bosqichli kodlashtirish:4-bosqich.

Birlikka ham hissiyot turini, ham kognitiv modelini ko'rsatuvchi murakkab semantik teg ([EMOT\_...]) biriktiriladi.

## NATIJALAR (RESULTS)

Tadqiqot natijasida parallel korpus uchun an'anaviy bir qatlamli teglash o'rniga ikki bosqichli kognitiv-semantik teglash tizimi taklif etildi. Teg tarkibi quyidagi formulaga muvofiq shakllantiriladi: **[EMOT\_(Hissiyot turi) + MET\_(Manba domeni)]**.

Ushbu tamoyil asosida o'zbek-ingliz parallel matnlari muvofiqlashtirildi va quyidagi korpus teglash modeli yaratildi:

O'zbekcha matn qismi	Inglizcha parallel muqobili	Kognitiv Model (Metafora)	Taklif etilgan semantik Teg
G'azabi qaynab chiqdi	His blood boiled	G'AZAB – BU QAYNAYOTGAN SUYUQLIK	[EMOT_ANGER + MET_FLUID]
Rashk o'tida yonmoq	To be consumed by jealousy	RASHK – BU OLOV	[EMOT_JEALOUSY + MET_FIRE]
Yuragiga g'ulg'ula tushdi	Cold fear gripped his heart	QO'RQUV – BU SOVUQLIK/JISM	[EMOT_FEAR + MET_COLD]

Ushbu jadval shuni ko'rsatadiki, garchi tillar turli tizimli bo'lsa-da, ba'zi kognitiv metaforalar (masalan, g'azabning qaynovchi suyuqlikka o'xshatilishi) universal xarakterga ega. Bunday holatlarda parallel teglash universal kodlar orqali amalga oshiriladi. Tillararo asimmetriya kuzatilganda esa teglash funksional muqobillik asosida bajariladi.

## MUNOZARA (DISCUSSION)

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, hissiyot leksik-semantik maydonini faqatgina lug'aviy ma'no bo'yicha teglash korpusning qidiruv imkoniyatlarini cheklab qo'yadi. Masalan, foydalanuvchi korpusdan o'zbek tilida g'azab hissiyotining olov determinanti orqali ifodalanishini qidirganda, an'anaviy korpuslar buni topib bera olmaydi. Biz taklif qilayotgan **[MET\_FIRE]** tegi esa matndagi barcha olov bilan bog'liq hissiyot ko'chishlarini tizimli tahlil qilishga yo'l ochadi.

Ushbu metodologiyaning afzalligi mashina tarjimasini (AI) modellarini o'qitishda namoyon bo'ladi. Sun'iy intellekt tizimlari parallel matndagi metaforik teglarni o'qish orqali badiiy matn tarjimasida so'zma-so'z (literal) tarjima xatolariga yo'l qo'ymaydi, balki kognitiv ekvivalentlarni tanlaydi. Cheklovlar nuqtai nazaridan shuni aytish kerakki, sof milliy-mental tabiatga ega bo'lgan va ingliz tilida muqobili bo'lmagan metaforik ko'chishlarni teglashda qo'shimcha kognitiv izoh (commentary tag) qatlamini kiritish talab etiladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). *Metaphors We Live By*. University of Chicago Press.
2. Kövecses, Z. (2000). *Metaphor and Emotion: Language, Culture, and Body in Human Feeling*. Cambridge University Press.
3. Safarov, SH. (2006). *Kognitiv tilshunoslik*. Jizzax: Sangzor.
4. Iskandarova, SH. (2023). *Matning leksik-semantik tahlili prinsiplari*. Toshkent.